



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



NAZARIY VA TAJRIBAVIY SOTSIOLINGVISTIKA

Rahmatova Durdona Isomiddin qizi

Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika Instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sotsiolingvistikaning asosiy yo'nalishlaridan biri nazariy va tajribaviy sotsiolingvistika, ularning shakllanish tarixi, tadqiqot obyekti hamda metodologik asoslari tahlil qilinadi. Nazariy sotsiolingvistika doirasida til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy omillarning (yosh, jins, kasb, hudud, ijtimoiy qatlam) til birliklariga ta'siri, til variativligi va funksional xususiyatlari yoritiladi. Tajribaviy sotsiolingvistika esa real nutq materiallari asosida olib boriladigan kuzatuv, so'rovnomalar, intervyu va statistik tahlil usullari orqali til hodisalarini empirik jihatdan o'rganishga qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistika, nazariy sotsiolingvistika, tajribaviy sotsiolingvistika, til va jamiyat, lisoniy variatsiya, ijtimoiy omillar, nutq amaliyoti, sotsial guruhlar, til siyosati, til va madaniyat, empirik tadqiqot.*

Annotation: *This paper examines the theoretical and empirical branches of sociolinguistics, their historical development, research objects, and methodological foundations. Within the framework of theoretical sociolinguistics, the relationship between language and society, the influence of social factors such as age, gender, profession, region, and social class on linguistic units, as well as language variation and functional characteristics, are analyzed. Empirical sociolinguistics focuses on the study of language phenomena based on real speech data using observation, questionnaires, interviews, and statistical analysis methods.*

Keywords: *sociolinguistics, theoretical sociolinguistics, experimental sociolinguistics, language and society, linguistic variation, social factors, speech practice, social groups, language policy, language and culture, empirical research.*

Аннотация: *В данной работе рассматриваются теоретические и эмпирические направления социолингвистики, история их формирования, объект исследования и методологические основы. В рамках теоретической социолингвистики анализируются взаимоотношения языка и общества, влияние социальных факторов (возраста, пола, профессии, региона, социального слоя) на языковые единицы, а также вариативность и функциональные особенности языка. Эмпирическая социолингвистика ориентирована на изучение языковых явлений на основе реального речевого материала с использованием методов наблюдения, анкетирования, интервью и статистического анализа.*

Ключевые слова: *социолингвистика, теоретическая социолингвистика, экспериментальная социолингвистика, язык и общество, языковая вариативность,*



социальные факторы, речевая практика, социальные группы, языковая политика, язык и культура, эмпирическое исследование.

Sotsiolingvistika (lot *societas* — jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolar majmuini o‘rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi.

Sotsiolingvistika o‘z ichiga sinxron va diaxron, makro va mikro, nazariy va tajribaviy, sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Biz asosiy fikrimizni nazariy va tajribaviy sotsiolingvistikaga qaratamiz.

Til tadqiqiga ijtimoiy nazar bilan yondashishning dastlabki bosqichida ijtimoiy-lisoniy aloqalar tahliliga aqliy yondashuv xos bo‘lib, mazkur sohaga tegishli daliliy materiallar hali yetarli emas edi. “Til-jamiyat” munosabatiga oid masalalar endigina o‘rtaga tashlangan va ular umumiy nuqtayi nazardan muhokama qilinar edi. Bunday tadqiqotlarga Y.D.Polivanov va A.Meyening ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Dastlabki sotsiolingvistik tadqiqotlar sotsiolingvistika nazariyasini shakllantirishda asos vazifasini o‘tadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarning mazkur yo‘nalishi, asosan, “til - jamiyat” munosabatlariga aloqador bo‘lgan unumiy muammolarning tadqiqi bilan shug‘ullanadi. Bu muammolar quyidagilardan iborat:

- tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqidagi umumiy tezis atrofida guruhlangan aksiomalar tizimini shakllantirish;
- til taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni aniqlash va ularning ijtimoiy tabiatini isbotlash;
- til mavjudligining ijtimoiy shartlanganligini tekshirish, uning turli muloqot muhitlari va ijtimoiy vaziyatlarga bog‘liqligini ko‘rsatish;
- kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy rollari tizimi yoki bu nutqiy aktlarni amalga oshirishdagi ijtimoiy-psixologik sharoitlar, so‘zlovchining bir koddan boshqasiga o‘ta olishi kabi qator omillarning ahamiyatini aniqlash va h.k.¹⁵⁰

Sotsiolingvistikaning nazariyachilari tilning ijtimoiy omillariga ommaviy empirik materiallarni bog‘lash zaruratini dastlabki bosqichlardayoq anglab yetishgan edi. XX asrning 60-yillarida Rossiyada M.V.Panov, AQShda U.Labov bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda sotsiolingvistik tadqiqotlarning zaruriy bosqichi va muayyan nazariy asoslarni isbotlash usuli sifatida tajribaga murojaat qilishgan. Mazkur xatti-harakatlar tajribaviy sotsiolingvistikaning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Sotsiolingvistik nazariya tilning jamiyat bilan bog‘liq munosabatlarining tadqiqot muammolari bilan shug‘ullanadi. Ya’ni tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, til taraqqiyotiga xos xususiyatlarni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

¹⁵⁰ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. -М., 2001. -С. 182.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Zamonaviy sotsiolingvistik tajriba ulkan tashkiliy faoliyat va muayyan moliyaviy xarajatlarni talab qiladigan murakkab ishdir. Binobarin, tajriba o'tkazuvchi tadqiqotchi kishilar nutqiy muomalasining o'ziga xos tomonlari yoki lisoniy hamjamiyatlarni tashkil qilgan turli ijtimoiy guruhlar haqida imkon qadar xolis va yetarli ma'lumotlar olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'z navbatida, tajriba o'tkazishning ishonchli vositalari, sinalgan usullar, maxsus tajriba dasturiga amal qiluvchi axborot beruvchi informantlar jamoasini to'ri tanlay olisli ham muhim hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, fan tarixida qo'pol sotsiolingvistik tajribalar ham o'tkazilgan. R. Bell yarim hazil, yarim chin ma'noda ilk sotsiolingvist tajribachi sifatida galaadityan qabilasiga mansub qadimgi lashkarboshi Ieftayni ko'rsatadi. U dushman "beshinchi kolonna" efremliklar qabilasi vakillarining o'z harbiy kuchlariga kirib olishining oldini olish maqsadida Iordan daryosi kechuviga kelgan har bir jangchiga "shibbolet" (yahudiy tilida "oqim" degani) - deb aytishni buyurgan. Galaaditliklar "shibbolet" so'zi boshidagi- [v] tovushini qiynalmasdan to'g'ri talaffuz qilishgan, efremliklar esa uni talaffuz qila olishmagan. Bu tajribaning natijasi qonli bo'lib, "shibbolet"ni galaaditcha aytolmagan 42 ming efremlik o'z hayoti bilan vidolashgan.¹⁵¹

Har bir sohada nazariy jihatlar e'tirof etilganidan va aniq xulosalar chiqarilgandan so'ng amaliyotda, albatta, qo'llab ko'riladi. Amaliyot bu bilimlarni shu sohada aynan o'rganish va uni yanada takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Amaliy sotsiolingvistikaning asosini davlat tilini yoki chet tillarni o'qitish, til siyosati ishlab chiqish va amaliy choralarni ko'rib chiqishni tashkil etadi.

Sotsiolingvistik nazariyalarni amaliyotda qo'llash uchun, ma'lum bir tilning vaziyatlaridan kelib chiqib qo'llaniladi. Ya'ni ko'p tilli davlatlar bilan bir tilli davlatlar orasidagi muammolar aynan bir xil emas. Shuning uchun ham sotsiolingvistik muammolarni ko'rib chiqish va sotsiolingvistikaning amaliy jihatlarini belgilash turlichadir.

Tajribaviy tadqiqotlarni o'tkazish uchun maxsus uslublar majmuyi ishlab chiqilmoqda. Bunday uslublardan ayrimlari U.Labov va uning izdoshlari tomonidan ingliz tilining Amerika variantini o'rganishda, shuningdek, M.V.Panov rahbarligidagi moskvalik tilshunoslar tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistikaning bu yo'nalishi tilning asosiy vazifasini bajarishga va til rivojiga hissa qo'shishga yo'naltirilgan. Sotsiolingvistika sohasi jamiyat va til o'rtasidagi munosabatlarni o'rgansa, sotsiolingvistikaning yo'nalishlari bu munosabatlarni yanada chuqurroq o'rganishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

¹⁵¹ Белл Р. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. -М.: Международные отношения, 1980. -С. 299-300.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. -М., 2001.
2. Белл Р. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. -М.: Международные отношения, 1980.
3. Журавлев В.К. Диахроническая социоллингвистика (предмет, задачи, проблемы) // Диахроническая социоллингвистика / Отв. ред. В.К. Журавлев. - М., 1993.
4. Xudoyqulova. "Sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma". Guliston – 2018.
5. Sh.Usmanova, N.Bekmuhammedova, G.Iskandarova. "Sotsiolingvistika". Toshkent. "Universitet" – 2014.

